

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03./30.12.2019.Gr.01.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

QURBONOV PAXLAVON RUSTAMOVICH

**JANUBIY O‘ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINING
HUDUDIIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Geografiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
географическим наукам (DSc)**

**Content of dissertation abstract of doctor
geographical sciences (DSc)**

Qurbonov Paxlavon Rustamovich

Janubiy O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining hududiy tarkibini
takomillashtirish 3

Курбонов Пахлавон Рустамович

Совершенствование территориальной структуры процессов урбанизации в
Южном Узбекистане 29

Kurbanov Pakhlavon Rustamovich

Improving the territorial structure of urbanization processes in Southern
Uzbekistan..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 62

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03./30.12.2019.Gr.01.06
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

QURBONOV PAXLAVON RUSTAMOVICH

**JANUBIY O‘ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINING
HUDUDiy TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Gr53 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qarshi davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.nuu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Tojiyeva Zulxumor Nazarovna geografiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Jumaxanov Shavkatjon Zairjanovich geografiya fanlari doktori, dotsent Turdimambetov Izimbet Raxmetovich geografiya fanlari doktori, professor Umurzaqov Baxodir Xamidovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03./30.12.2019.Gr.01.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 26-noyabrdagi soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent, Univerisitet ko‘chasi, 4-uy. Tel: (99871) 227-12-14; faks: (99871) 246-53-21; 246-02-24; E-mail: ik-geografiya.nuuz@mail.ru. O‘zbekiston Milliy universiteti, Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 191 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent, Univerisitet ko‘chasi, 4-uy. Tel: (99871) 246-67-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 15-noyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 14-noyabrdagi 70-raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.M.Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

K.A.Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d., dotsent

M.T.Mirakmalov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, g.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda so‘nggi yillarda sanoatlashuv va fan texnika taraqqiyoti ta‘sirida aholi soni va urbanizatsiya darajasini yuqori sur‘atlar bilan o‘tib borishi ro‘y bermoqda. Bu jarayonda hududlarning tabiiy-geografik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini to‘liq hisobga olinmasligi shahar aholi punktlarida ko‘plab ijtimoiy-ekologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish dasturida “Shaharlar va aholi punktlarining ochiqligi, xavfsizligi, barqarorligi va ekologik jihatdan bardoshlilikini ta‘minlash”¹ vazifalarida ham belgilangan. Mazkur vazifalarining yechimi, o‘z navbatida, ishlab chiqarish kuchlarini to‘g‘ri hududiy tashkil etish, katta-kichik shaharlar hamda qishloq aholi punktlarining yagona tizim doirasida rivojlanishini uyg‘unlashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni taqozo etadi.

Dunyoda mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarga, xususan, urbanizatsiya jarayonlari va shaharlarni barqaror rivojlanish imkoniyatlarini cheklovchi tabiiy, iqtisodiy, sotsial va ekologik omillarni aniqlash orqali ularning ijtimoiy-iqtisodiy va urboekologik vaziyatini yaxshilashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu borada, hududlarning urbanistik salohiyatini aniqlash, yirik urbanistik tizimlar, shahar va shahar aglomeratsiyalarining rivojlanishi, shaharlarning funksional tarkibini zamonaviylashtirish va diversifikatsiya qilish, agroindustrial shaharchalar va qishloq urbanizatsiyasini joylarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan muvofiqlashtirishga qaratilgan tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

Respublikamizda urbanizatsiya siyosatini olib borishda yangi “aqlli” shahar konsepsiyasini amalga oshirish, shahar ekotizimini yaxshilash, yo‘ldosh shaharlar rivojlanishiga sharoit yaratishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda va ijobiy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston – 2030 strategiyasida “Urbanizatsiya darajasini 51 foizdan 60 foizga yetkazish choralari ko‘rish, Samarqand va Namangan shaharlarini “millionlik shaharlar”ga aylantirish, 300 mingdan ko‘p bo‘lgan shahar va tumanlar sonini 28 taga yetkazish, barcha aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqish”² yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy va demografik salohiyatga ega Janubiy O‘zbekiston viloyatlarida urbanizatsiya jarayonlarini rivojlanishiga ta‘sir etuvchi geografik omillarni aniqlash, mavjud muammoning yechimiga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 10-yanvardagi PF-5623-son “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 201-son “2022–2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish

¹ <https://www.un.org/sustainabledevelopment/cities/>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.

va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 10-maydagi 245-son “2022–2026-yillarda Surxondaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Shaharlar shakllanishi va urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishi, uning turli siyosiy-ma’muriy, huquqiy, sotsial, iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik jihatlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi tashkilotlari, ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan: UN-Habitat (BMT), OECD – (YEI), World Bank (Jahon banki), ICLEI – (Shaharlarni ekologik barqaror rivojlanishi bo‘yicha tadqiqotlar olib boruvchi halqaro tashkilot), C40 Cities Climate Leadership Group (iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash bo‘yicha yetakchi shaharlar guruhi halqaro tashkiloti), AQSH (Massachusetts Institute of Technology (MIT), University of California, Berkeley), Niderlandiya (TU Delft), Angliya (University of Oxford, University College London), Germaniya (Leibniz Institute for Regional Geography, Humboldt University), Rossiya Federatsiyasi (MGU), Fransiya (Institut d’Aménagement et d’Urbanisme), Xitoy (Chinese Academy of Sciences, Peking University – School of Urban and Environmental Sciences), Koreya respublikasi (Seoul National University), O‘zbekiston (O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti) va boshqa davlatlarda olib borilmoqda.

Jahonda shaharlarning barqaror taraqqiyotini ta’minlash va urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishini takomillashtirishga oid olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy-amaliy natijalar olingan: hududlarning urbanistik siyosati, shaharlarda jamoat transporti va sotsial tenglik, iqlim o‘zgarishi sharoitida shaharlar barqarorligi nazariyalari ishlab chiqilgan (Massachusetts Institute of Technology (MIT), AQSH); hududiy urbanistik tizimlar rivojlanishi, aglomeratsiyalarning iqtisodiyotga ta’siri, kelajak shaharlarini modellashtirish metodikasi yaratilgan (London School of Economics (LSE), Angliya); shahar infratuzilmasi, yerdan foydalanish, shaharlar arxetekturasi, smart shahar konsepsiya ishlab chiqilgan (University of Tokyo, Yaponiya); urbanizatsiya jarayonlarini prognozlashtirish, shaharlar transformatsiyasiga oid dasturlar ishlab chiqilgan (Utrecht University, Niderlandiya); shahar ekologiyasi, yer resurslari boshqaruvi, migratsiya jarayonlari va iqtisodiy faollikni baholash metodikasi ishlab

³ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: <https://unhabitat.org.>, <https://www.worldbank.org.>, <https://www.oecd.org.>, <https://www.espon.eu.>, <http://www.landscape-ecology.org.>, <http://www.dslib.net.>, <http://www.elsevier.com.>, <https://www.researchgate.net.>, <http://www.dissertat.com.>, <https://link.springer.com.>, <http://www.scholar.google.com> kabi saytlar asosida tuzilgan.

chiqilgan (ETH Zurich – Institute of Urban and Landscape Studies, Shveysariya); urbanizatsiyaning demografik jarayonlarga ta'siri, shahar landshafti, resurslar yetishmovchiligi sohalari bo'yicha nazariyalar ishlab chiqilgan (Chinese Academy of Sciences, Xitoy).

Dunyoda urbanizatsiya jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish bo'yicha, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda: hududlarning urbanistik salohiyatni aniqlash va baholash metodikalarini takomillashtirish, urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni zamonaviy usullar orqali tadqiq qilish, iqlim o'zgarishini shaharlar taraqqiyotiga ta'sirini tahlil qilish, urbanistik tizimlar va iqtisodiy rivojlanish, yer resurslarini boshqarish va infratuzilma rivojlanishi o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlash, demografik muammolarning shaharlar aholisi dinamikasiga ta'sirini baholash, shaharlarning ijtimoiy muhiti va shaharcha turmush tarzi tarqalish qonuniyatlarni tadqiq etish, shaharlar rivojlanish natijasida mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy farovonlikka erishish va boshqalar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ta'kidlash joizki, shaharlar rivojlanishi va ular bilan bog'liq urbanizatsiya jarayoni iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida ancha ko'p o'rganilgan ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Jumladan, aholi punktlari va urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari xorijlik olimlar V.Petti, A.Veber, V.Kristaller, P.Geddes, F.Perru, E.Burges, F.Ratsel, E.Xovard, S.Sassen, E.V.Soya, M.Pachione, D.Xarvi, M.Kastels, D.Massi, Y.Tin.Sin, R.Florida va MDH mamlakatlaridan N.N.Baranskiy, Y.G.Saushkin, O.A.Konstantinov, N.V.Zubarevich, I.M.Mayergoyz, G.M.Lappo, B.S.Xorev, Y.N.Persik, Y.L.Pivovarov, V.Sh.Djoashvili kabilar ishlarida o'z aksini topgan. O'zbekistonda esa ko'rilayotgan muammoning geografik jihatlari Z.M.Akramov, E.A.Ahmedov, I.V.Smirnov, T.I.Raimov, O.B.Ata-Mirzayev, A.S.Soliyev, A.A.Qayumov, S.S.Zokirov, J.A.Ismatov va boshqalar tomonidan batafsil o'rganilgan. Shuningdek, alohida mintaqalar doirasida T.N.Mallaboyev, Sh.B.Imomov, Z.T.Raimjonov, Z.T.Abdalova, M.Erdonov, M.M.Egamberdiyeva, B.Musayevlar tadqiqot olib borishgan. Urbanizatsiyaning ayrim geografik (tabiiy, ekologik, ijtimoiy) jihatlari G'.Pardayev, A.Soatov, Y.Ahmadaliyev, A.Mavlonov ishlarida ko'rib chiqilgan.

Biroq, ta'kidlash lozimki, yuqoridagi ilmiy ishlarning ko'pchiligi avvalgi ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy tizimda bajarilgan bo'lib, ularda yangi urbanistik siyosat va shahar joylar rivojlanishiga turli xil omillarning ta'siri to'liq e'tiborga olinmagan. Binobarin, mazkur tadqiqot ishi kompleks geografik omillarning ta'sirini baholash orqali urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishini takomillashtirishga bag'ishlanganligi bilan boshqa turdagi ishlardan farq qiladi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Qashqadaryo viloyati tabiiy resurslari, ulardan oqilona foydalanish va yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni bartaraf etish yo'llari" ustivor yo'nalishi va "O'zbekiston xaritasining

kartografik ishlarini bajarish” mavzusidagi xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Janubiy O‘zbekiston shahar aholi punktlari taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash asosida mintaqada urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hozirgi sharoitda shaharlar rivojlanishi va urbanizatsiya jarayonining geografik jihatlarini o‘rganish orqali O‘zbekiston Respublikasi hududlarining urbanistik salohiyatini aniqlash va baholash metodikasini takomillashtirish;

respublika viloyatlarining umumiy urbanizatsiya darajasini sanoat nisbatan sust rivojlangan sharoitda tez o‘sishi, uning boshqa omillar bilan aloqadorligini tadqiq etish;

Janubiy O‘zbekiston hududini tabiiy-xo‘jalik ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda, shaharsozlik nuqtai-nazardan baholash va rayonlashtirish, mintaqa shahar aholi punktlarining demografik vaziyati, sanoati va transport tizimi funksiyalarini ilmiy – amaliy jihatdan asoslab berish;

Janubiy O‘zbekiston shaharlarida iqtisodiy-ijtimoiy sohalar rivojlanishining urbanizatsiya jarayoniga ta’sirini baholash hamda urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishini ko‘p mezonli tahlil metodi yordamida modellashtirish;

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari shaharlar to‘ri va tarkibi, shahar aholisi, urbanizatsiya darajasini qisqa, o‘rta va uzoq muddatga prognoz qilish hamda urbanizatsiya darajasini oshirish bo‘yicha belgilangan muddatlarda strategik maqsadlarga erishish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqish;

Janubiy O‘zbekiston shahar aholi punktlari rivojlanishining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolari va istiqbol yo‘nalishlarini belgilash orqali mintaqada urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Janubiy O‘zbekiston viloyatlari urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishining hududiy tarkibi olingan.

Tadqiqotning predmeti Janubiy O‘zbekiston viloyatlari shahar aholi punktlari rivojlanishida geografik omillarning ta’sirini aniqlash va urbanizatsiya jarayonining hududiy tarkibini takomillashtirish masalalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotida geografik taqqoslash, tizim-tarkib, GAT texnologiyalari asosida kartalashtirish, tarixiy, statistik, matematik modellashtirish, hududiy tahlil, ekspert baholash, ekstrapolyatsiya kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi hududlarining urbanistik salohiyat indeksi 7 ta indikatorlar guruhi – urbanistik to‘ri va tarkibi (5 ta indikator), demografik (7 ta indikator), iqtisodiy (8 ta indikator), mehnat resurslari va aholi bandligi (5 ta indikator), ijtimoiy infratuzilma (12 ta indikator), inson kapitali va aholi daromadlari (5 ta indikator), ekologik va kriminogen vaziyat (3 ta indikator) asosida aniqlangan va hududlarni urbanistik salohiyatiga ko‘ra baholashning (yuqori, o‘rta, past)

mavjud uslubiyoti ekspert baholash, integral indeks va GIS tahlili usullari orqali takomillashtirilgan;

O‘zbekiston Respublikasi 14 ta ma‘muriy subektlarida sanoatda band aholi ulushining nisbatan past ekanligi sharoitida shaharlashuv jarayonlariga ta‘sir etuvchi omillarning (tabiiy sharoit, resurslar bilan ta‘minlanganlik, uchlamchi sektorda bandlik) urbanizatsiya darajasi bilan aloqadorligi (kuchli, o‘rta, kuchsiz) Spirmen korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali asoslangan;

Respublika hududlarining urbanizatsiya darajasi eng quyi ma‘muriy birlik - qishloq tumanlari kesimida tadqiq qilingan, “mikro hududlar urbanizatsiya darajasi” tushunchasi ilmiy asoslangan va “O‘zbekiston Respublikasining mikro hududlar urbanizatsiyasi” kartasi yaratilgan;

Janubiy O‘zbekiston shahar aholi punktlari funksional tiplari (ko‘p funksiyali, industrial, agrar industrial, xizmat ko‘rsatish, ma‘muriy markaz, turizm va rekratsiya) va tabiiy xo‘jalik rayonlari ixtisoslashuvi ekspert usulida baholangan, tadqiqot ob‘ekti mutlaq balandlik bo‘yicha (tekislik, tog‘ oldi, tog‘) shaharsozlik nuqtai-nazardan rayonlashtirilgan;

Janubiy O‘zbekiston shahar aholisi va urbanizatsiya darajasi o‘zgarishining 2010-2024 yillar ma‘lumotlari bo‘yicha regressiya va korrelyatsiya usullari orqali ko‘p faktorli (iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, demografik) tahliliga asoslangan matematik (chiziqli, kub polinom, kvadratik, parabolik, to‘rtinchi darajali, logorifmik, eksponensial) modellari ishlab chiqilgan;

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari urbanizatsiya darajasi, shaharlar aholi soni, shaharlar to‘ri va tarkibi yaqin (2030-yil), o‘rta (2040-yil) va uzoq (2050-yil) muddatga ekstrapolyatsiya va kub polinom matematik modellashtirish usullarida prognozlashtirilgan, Janubiy O‘zbekistonda urbanistik tizimlari shakllanishi transport yo‘llari bilan o‘zaro aloqadorlikda rivojlanishi ilmiy isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Urbanizatsiya jarayonlariga iqtisodiy, demografik, ma‘muriy-boshqaruv, ijtimoiy-ekologik omillarning ta‘siri katta hajmdagi statistik materiallar yordamida tahlil qilindi, hududning urbanistik salohiyatini (HUS) baholashni o‘ziga xos indeksli usuli ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasining qishloq tumanlari miqyosida urbanizatsiya darajasi tahlil qilinib, mikro hududlar urbanizatsiyasi atamasining ilmiy ta‘rifi berilgan. 1:500000 masshtabdagi “O‘zbekiston Respublikasining mikro hududlar urbanizatsiyasi” kartasi yaratilgan.

Janubiy O‘zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishga ta‘sir qiluvchi ko‘p faktorli omillarni matematik modellashtirish orqali urbanizatsiya jarayonlarini hududiy takomillashtirish bo‘yicha amaliy taklif-tavsiyalar va kartalar ishlab chiqilgan.

Janubiy O‘zbekiston urbanistik tizimlari shakllanishining transport yo‘llari bilan o‘zaro aloqadorlikda rivojlanishini g‘isobga olgan holda Ayritom-Chiroqchi-Yakkabog‘ va Qumqo‘rg‘on-Sariq-Sherobod yangi temir yo‘l liniyalari qurilishi taklif qilingan va maxsus kartalar ishlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi

huzuridagi Kadastr agentligining ma'lumotlaridan foydalanilgani bilan asoslanadi. Asosiy natijalar ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullari, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar ilmiy-asoslangan manbalardan olingani, hamda bevosita muallifning mintaqa shahar aholi punktlarida o'tkazgan sotsiologik so'rovnoma natijalari, shuningdek, tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan mavzuli kartalar, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishiga kompleks geografik omillarning ta'sirini baholashda, urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishi natijasida yuzaga kelayotgan ma'muriy-boshqaruv, iqtisodiy, demografik, ijtimoiy-ekologik muammolarning faktlar va statistik ma'lumotlar bilan asoslab berilganligi, urbanizatsiya jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etishda majmualari geografik yondoshuvning ahamiyati asoslanganligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya ishining amaliy ahamiyati Janubiy O'zbekiston viloyatlarida shaharlar to'ri va tarkibini takomillashtirishga, urbanizatsiya darajasini oshirishga oid maqsadli-dasturlarini ishlab chiqish uchun geografik axborat tizimlar (GAT) bazasi yaratish, shaharlarning kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Urbanizatsiyani hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

O'zbekiston hududlarining urbanistik to'ri va tarkibi, demografik, iqtisodiy, mehnat resurslari va aholi bandligi, ijtimoiy infratuzilma, inson kapitali va aholi daromadlari, ekologik va kriminogen vaziyat kabi indikatorlar guruhi asosida aniqlangan urbanistik salohiyat indeksi hamda hududlarni urbanistik salohiyatiga ko'ra ekspert baholash, integral indeks va GIS tahlili usullari orqali takomillashtirilgan uslubiyoti O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy xo'jaligi vazirligi tomonidan aholi punktlarining urbanizatsiya darajasini aniqlash, uni oshirish uslubiyoti va ularni baholash mexanizmlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi urbanizatsiya va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish respublika markazining 2025-yil 28-iyuldagi 07-325-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining 33-maqsadining 152-vazifasi "hududlarda aholining yashash sharoitini yaxshilash uchun urbanizatsiya siyosatini yanada takomillashtirish" ijrosini amalga oshirish imkoniyatini bergan;

O'zbekiston Respublikasi shahar aholi punktlari va shahar aholisining hududiy tarkibida sanoati (sust, o'rta, yuqori) rivojlangan mintaqalarda urbanizatsiya darajasining tez o'sishiga ta'sir etuvchi omillarning aloqadorligi (kuchli, kuchsiz, o'rta) Spirmen Korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali asoslab berilganligi bo'yicha ma'lumotlardan Kadastr agentligi "Kartografiya" davlat ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi tomonidan kartalar ishlab chiqarishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr Agentligining 2025-

yil 10-iyuldagi 03/08-7590-son ma'lumotnomasi). Natijada, 1:200 000 masshtabdagi "O'zbekiston Respublikasi shahar aholi punktlari va shahar aholisining hududiy tarkibi" kartasi nashr etilgan;

Respublika hududlarining eng quyi ma'muriy birlik – qishloq tumanlari kesimida aniqlangan urbanizatsiya darajasi, shaharlar geografiyasi va geourbanistikada ilk bora qo'llanilgan "mikro hududlar urbanizatsiya darajasi" tushunchasi to'g'risidagi asoslangan ilmiy xulosalaridan "O'zbekiston tarixi" telekanalida 2023-yil 10-oktabrda efirga uzatilgan "Taqdimot" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi "Ma'rifat ijodiy birlashmasi" davlat muassasasining 2025-yil 22-iyuldagi 01-33/551-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston– 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 60-maqсад va vazifalarini ommaviy axborot vositalarida keng sharhlab borish va uning mazmun-mohiyati jamoatchilikka yetkazish imkonini bergan;

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari shahar aholi punktlari funksional tiplari va tabiiy xo'jalik rayonlari ixtisoslashuvini ekspert usulida baholanganligi hamda Janubiy O'zbekiston hududini shaharsozlik nuqtai-nazardan tekislik, tog' oldi, tog' mintaqalari kesimida rayonlashtirilganligiga oid ilmiy natijalari Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi amaliyotida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi urbanizatsiya va shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish respublika markazining 2025-yil 28-iyuldagi 07-325-son ma'lumotnomasi). Natijada, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari shahar aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini tayyorlash, shaharlarni infrastruktura bilan ta'minlanganligini inobatga olgan holda iqtisodiy-ijtimoiy obektlarni joylashtirish va loyihalashtirish dasturlarini ishlab chiqish imkonini bergan;

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari shahar aholisi va urbanizatsiya darajasi o'zgarishining regressiya va korrelyatsiya usullari orqali ishlab chiqilgan ko'p mezonli tahliliga asoslangan matematik model natijalaridan "O'zbekiston tarixi" telekanalida 2023-yil 12-iyulda efirga uzatilgan "Mavzu" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi "Ma'rifat ijodiy birlashmasi" davlat muassasasining 2025-yil 22-iyuldagi 01-33/551-son ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 33-maqсад va vazifalarini ommaviy axborot vositalarida keng sharhlab borish hamda uning mazmun-mohiyatini jamoatchilikka tushuntirish imkonini bergan;

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining urbanizatsiya darajasi, shahar aholi soni, shaharlar to'ri va tarkibining 2030-, 2040-, 2050-yillar uchun amalga oshirilgan prognozlashtirish ishlaridan hamda Janubiy O'zbekiston shaharlarining transport yo'llari bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanishi haqidagi ilmiy asoslangan takliflaridan Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi amaliyotida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlariga tegishli urbanizatsiya va shaharsozlik xujjatlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi urbanizatsiya va shaharsozlik

hujjatlarini ishlab chiqish respublika markazining 2025-yil 28-iyuldagi 07-325-son ma'lumotnomasi). Natijada, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari shahar va tumanlarini kompleks rivojlantirish davlat dasturlarida belgilangan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarini qurish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari bo'yicha loyihalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.


Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 30 ta ilmiy ish, shulardan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan 8 ta respublika, 5 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 254 sahifadan iborat bo'lib, shundan matn qismi 201 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida olib borilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy rejalari bilan bog'liqligi, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obekti va predmeti, tadqiq etish metodologiyasi va metodlari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, himoyaga olib chiqilgan ishning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Urbanizatsiya rivojlanishini tadqiq etishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari**" deb nomlangan bo'lib, unda aholi punktlari, jumladan shaharlar va xo'jalik tarmoqlarini hududiy tashkil etilishining klassik va zamonaviy nazariyalari, shaharlar rivojlanishi va urbanizatsiya jarayonlarini o'rganishning metodologik asoslari va bu sohada olib borilgan tadqiqot natijalari o'rganilgan. Xususan, shahar aholi punktlari va xo'jalik tarmoqlarini hududiy tashkil etish bo'yicha A.Veber, V.Kristaller, P.Geddes, F.Perru, E.Burges, F.Ratsel, S.Sassen, E.V.Soya, M.Pachione, D.Xarvi, M.Kastels, D.Massi, Y.Tin.Sin, R.Florida va boshqa xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy va metodologik qarashlari taqqoslangan. Jumladan, A.Veberning "Sanoat shtandorti", V.Kristallerning "Markaziy o'rinlar", A.Lyoshning "Iqtisodni hududiy tashkil etilishi", F.Perruning "O'sish qutblari va rivojlanish markazlari" nazariyalari mazmun mohiyati, ushbu nazariy ishlanmalarning shaharlar geografiyasi va geogrbanistika fanlari rivojlanishiga qo'shgan hissasi tahlil qilindi (1-rasm). Fransuz olimi F.Perru mamlakat va mintaqalarda rivojlanish bir tekis amalga oshmasligi, u ma'lum markazlar (shaharlar, sanoat zonalari yoki texnologiya markazlari) atrofida jamlanishi va bu markazlarda rivojlanish jarayoni yuqori sur'atda amalga oshishi hamda aynan ular "o'sish qutblari" sifatida xizmat qilishini ta'kidlaydi.



1-rasm. Aholi punktlari va xo'jalik tarmoqlarini joylashtirishning asosiy klassik nazariyalari. Izoh: Rasm muallif tomonidan chizilgan.

Chunki, o'sish qutblari o'zlarining atrofidagi hududlarga ijobiy (yangi ish o'rinlari yaratish, infratuzilma rivojlanishi, texnologiyalarning tarqalishi) yoki salbiy (resurslarning bir markazga yig'ilishi, periferiya hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy qaramligi) ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bu ta'sir markaz va periferiya o'rtasidagi iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar orqali amalga oshadi. O'sish qutblari rivojlanishi tashqi omillarga bog'liq bo'lib,

rivojlanish markazlari iqtisodiy faoliyatni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ular innovatsiyalar, sarmoyalar va ishlab chiqarish jarayonlarini jalb qiladi. Bu jarayon, o‘z navbatida, iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtiradi, natijada, ularning atrofida sanoat korxonalari, xizmat ko‘rsatish sohalari, transport infratuzilmalari va aholi punktlari rivojlanadi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasida ham hududlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini jadallashtirish uchun “o‘shish qutblari” vazifasiga mos shaharlarni aniqlab olish va shu asosda urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri sanaladi.

1-jadval.

Hududlarning urbanistik salohiyat indeksi (2024-yil yakunlariga ko‘ra).

T/r	Hududlar	Indikatorlar							Jami
		urbanistik tor va tarkib	demografik	iqtisodiy	mehnat resurslari va aholi	ijtimoiy infratuzilm	inson kapitali va aholi	ekologik va kriminogen vaziyat	
1	Toshkent shahri	0,426	12,799	0,311	0,824	1,194	3,152	0,088	2,660
2	Farg‘ona	2,983	3,016	0,101	0,650	0,536	0,681	0,048	1,131
3	Andijon	2,055	2,829	0,096	0,649	0,475	0,783	0,027	0,980
4	Namangan	1,654	1,983	0,085	0,625	0,510	0,656	0,023	0,784
5	Xorazm	0,965	1,333	0,058	0,587	0,465	0,858	0,042	0,603
6	Sirdaryo	0,688	1,009	0,025	0,551	0,553	0,765	0,029	0,509
7	Samarqand	0,625	1,022	0,094	0,621	0,471	0,773	0,123	0,498
8	Toshkent	0,729	1,046	0,151	0,696	0,608	0,794	0,818	0,458
9	Surxondaryo	0,640	0,850	0,058	0,552	0,402	0,641	0,075	0,438
10	Buxoro	0,233	0,427	0,090	0,620	0,479	1,074	0,103	0,403
11	Qashqadaryo	0,514	0,742	0,081	0,624	0,357	0,650	0,232	0,391
12	Navoiy	0,078	0,355	0,094	0,711	0,558	1,114	0,241	0,381
13	Jizzax	0,248	0,528	0,043	0,534	0,457	0,742	0,086	0,352
14	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	0,049	0,299	0,047	0,602	0,492	0,899	0,690	0,243

Jadval O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shuningdek, mazkur bobda hududlarning urbanistik salohiyatini aniqlashning demografik (aholisi soni, zichligi, urbanizatsiya darajasi) va iqtisodiy ko‘rsatkichlar (sanoat, qurilish, xizmatlar sohasi, aholi bandlik darajasi) tahliliga asoslangan an’anaviy metodlari rivojlantirildi. Xususan, O‘zbekiston hududlarining urbanistik salohiyat indeksi 7 ta indikatorlar guruhi – urbanistik to‘r va tarkib (5 ta indikator), demografik (7 ta indikator), iqtisodiy (8 ta indikator), mehnat resurslari va aholi bandligi (5 ta indikator), ijtimoiy infratuzilma (12 ta indikator), inson kapitali va aholi daromadlari (5 ta indikator), ekologik vaziyat (2 ta indikator), kriminogen va nozogeografik holat (2 ta indikator) asosida aniqlandi va hududlarni urbanistik salohiyatiga ko‘ra baholashning (yuqori, o‘rta, past) mavjud uslubiyoti ekspert baholash, integral indeks va GIS tahlili usullari orqali takomillashtirildi. Umumiy urbanistik salohiyatiga ko‘ra Toshkent shahri, Farg‘ona, Andijon, Namangan, Xorazm viloyatlari – yuqori urbanistik salohiyatli, Sirdaryo, Samarqand, Toshkent, Surxondaryo va Buxoro viloyatlari – o‘rta salohiyatli, Qashqadaryo, Navoiy, Jizzax

viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi – past salohiyatga ega hududlar ekanligi isbotlandi. Bu yerda umumiy geografik qonuniyat shundan iboratki, urbanistik salohiyat va ma‘muriy birliklar maydoni o‘rtasida teskari aloqadorlik mavjud, ya‘ni hudud qancha katta bo‘lsa urbanistik salohiyati past, qancha kichik bo‘lsa yuqori bo‘ladi (1-jadval).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekistonda urbanizatsiyani rivojlantirish va qo‘yilgan vazifalarga erishishda, hududlarning mavjud imkoniyatlari va salohiyatidan kelib chiqqan holda, urbanizatsiyani jadallashtirish bo‘yicha hududiy strategik dasturlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Bunda, asosiy e‘tibor, har bir hududning sust rivojlanayotgan yo‘nalishlaridagi muammolarni aniqlash va bartaraf etish, kuchli jihatlarni yanada yaxshilashga qaratilishi lozim.

“O‘zbekistonda shahar aholi punktlari va shahar aholisi joylanishining geografik jihatlari”, deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda shaharlar tizimining shakllanish bosqichlari, yangi urbanistik islohatlar natijasida hududiy urbanistik tarkibdagi o‘zgarishlar, respublika shahar aholi punktlarining klassifikatsiyasi, qishloq tumanlari kesimida urbanizatsiya darajasiga asoslangan mikro hududlar urbanizatsiyasi, urbanizatsiya jarayonlarini tadqiq etishda xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan.

Urbanizatsiyaning bevosita geografik ko‘rsatkichlari shahar va shaharchalarning zichligi, hududlarning shaharlar to‘ri bilan ta‘minlanganligi, urbanistik va hududiy urbanistik tarkiblari orqali aks ettiriladi. Bu geoindikatorlar alohida-alohida emas, birgalikda ushbu jarayonning real holatini baholab beradi.

O‘zbekiston qadimgi madaniyat va shaharsozlik markazlaridan hisoblansada, bu yerda shaharlar to‘ri va tizimi, hozirgi zamon mazmunidagi urbanizatsiya jarayonlari eng so‘nggi yillarda shakllangan. Ushbu jarayonning demografik ko‘rsatkichi, xususan shahar va shaharchalar soni oxirgi qirq yil davomida ikki marta keskin o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Masalan, 1970 yilda Butunittifoq aholi xatlovi ma‘lumotlariga ko‘ra, bu yerda 42 ta shahar, 82 ta shaharcha mavjud bo‘lib, ularda jami aholining 36,6 foizi yashagan. 1972 yilda aholi punktlariga shahar maqomini berish meyorini 10 mingdan 7 mingga tushirilishi munosabati bilan, ularning soni keskin ko‘payib bordi. Bu holatni respublikada urbanizatsiya rivojlanishining *birinchi to‘lqini*, deb hisoblash mumkin. Ta‘kidlash joizki, shahar joylar sonining tez ko‘payishi, ayniqsa 1975-1979 yillarda ko‘zga tashlanadi. O‘zbekistonda 1979 yilda 90 ta shahar va 94 ta shaharcha mavjud bo‘lib, ularga jami aholining 41,2 foizi to‘g‘ri kelgan. Urbanizatsiya demografik ko‘rsatkichlarining tez ko‘tarilib borishi taxminan 1985 yillargacha davom etgan. Bu davrda umumiy urbanizatsiya darajasi 42 foizga yetgan, undan keyingi yillarda esa shaharlar sonining ko‘payish sur‘ati ancha susaygan va asta-sekin barqarorlashgan. Masalan, O‘zbekistonda shahar aholi punktlari soni 1989-2008 yillar, ya‘ni 20 yil mobaynida atigi 5,4 foizga ko‘paygan, xolos. E‘tiborli jihati shundaki, bu davrda urbanizatsiyaning umumiy ko‘rsatkichi ko‘tarilishi o‘rniga, pasayib borgan.

2009 yilni respublikamizda “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” deb e‘lon qilinishi va bu borada maxsus davlat dasturining ishlab chiqarilishi munosabati bilan 966 qishloqlarga shaharcha maqomi berildi. Natijada, shaharchalar soni va umumiy urbanizatsiya darajasi keskin ko‘tarilib, 2008 yildagi 35,8 foizdan 2009 yilda 51,7

foizga oshdi. Bunday “sakrash” yoki “inqilobiy o‘zgarish” ayniqsa Namangan, Farg‘ona, Andijon, Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarqand viloyatlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu holatni respublikada urbanizatsiyaning *ikkinchi to‘lqini* sifatida talqin qilish mumkin (Soliyev A., Qurbonov P., 2010).

2009-yildan keyingi yillarda respublika aholisining urbanizatsiya darajasi faqat Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlarida oshgan bo‘lib, haqiqatda esa yangi tashkil etilgan shaharchalarda shahar tashkil etuvchi tarmoqlar – sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalari hamda ularda band aholi sonida deyarli o‘zgarishlar kuzatilmadi. Ya’ni, statistik ma‘lumotlarda mamlakat aholisining yarmidan ko‘pi shahar joylarda istiqomat qilsada, amalda bu ijobiy holat mamlakat aholisi turmush tarzida e‘tiborli darajada aks etmadi.

So‘nggi yillarda respublikada siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida katta islohatlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohatlar natijasi urbanizatsiya jarayoni, uning tarkibiy qismi bo‘lgan shahar va shahar aglomeratsiyalarida ham o‘z aksini topmoqda. Jumladan, Respublika urbanizatsiya darajasini 2030-yilga qadar 60 foizga yetkazish bo‘yicha Davlat dasturi ishlab chiqish, bunda faqat poytaxt va viloyat markazlari bo‘lgan shaharlarni emas, avvalo, hududlarda joylashgan shahar va posyolkalarni kompleks rivojlantirishga e‘tibor qaratish, urbanizatsiya jarayonlarini tartibga solish va boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalarni faol qo‘llash, o‘rta bo‘g‘in shaharlar toifasini yanada rivojlantirish va ular asosida o‘rish qutb va markazlarini shakllantirish kabi maqsadlar belgilab olingan. Mazkur islohatlar o‘z navbatida *uchinchi - sifat to‘lqinini* boshlab berdi.

Urbanizatsiya jarayoni rivojlanishini umuman shahar joylarning mavjudligi bilan emas, balki ularning funksional tiplari bilan baholash to‘g‘riroq bo‘ladi. Shaharlarning funksional tiplari urbanizatsiya jarayonini muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlaridan biridir. Bu xususda, ayniqsa, shahar hosil qiluvchi tarmoqlarning ahamiyati katta. Umumiy tarzda esa, mazkur holat viloyat va respublika yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan tarmoqlar hissasi oshib borishida o‘z aksini topadi. Aslini olganda, klassik urbanizatsiya hududning sanoatlashganligi bilan tavsiflanadi. Bu jihatdan qaraganda YaHM tarkibi bilan urbanizatsiya o‘rtasida qandaydir qonuniy aloqadorlikni ilg‘ash mumkin.

Jumladan, sanoat va qurilish hissasi Andijon, Navoiy, Toshkent kabi viloyatlarda yuqori. Shunga mos holda bu mintaqalarda umumiy urbanizatsiya darajasi ham yuqoriroq. Teskari holat Xorazm, Surxondaryo viloyatlarida kuzatiladi. Ammo, bu qonuniyat barcha hududlarda o‘z isbotini topmaydi. Masalan, Namangan viloyatining hozirgi urbanizatsiya darajasi respublikada eng yuqori – 64,9 %, uning iqtisodiyoti esa tipik agroindustrial xarakterga ega. O‘zbekiston Respublikasining aholi bandlik tarkibi va urbanizatsiya ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi aloqadorlikni aniqlash uchun qo‘llanilgan Spirmen korelyatsiyasi koeffitsiyenti urbanizatsiya darajasi va I sektorda (qishloq va o‘rmon xo‘jaligi) band bo‘lganlar o‘rtasidagi bog‘liqlik minus 0.42 ga teng.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, ushbu ko‘rsatkich manfiy (minus) bo‘lsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqadorlikning yo‘qligini, musbat (plyus) bo‘lganda bunday bog‘liqlik mavjudligini anglatadi. Ushbu koeffitsiyent minimal –1.00, maksimal +1.00 bo‘lishi mumkin.

Haqiqiy urbanizatsiyalashuv darajasini belgilab beruvchi II (sanoat va qurilish) va III (transport, xizmatlar va b.) sektorda band aholi bilan aloqadorlik koeffitsiyenti 0,42 punktni ko'rsatmoqda (mos ravishda 0,37; 0,11). Demak, respublika shaharlari bilan mazkur tarmoqlarda band bo'lgan aholi o'rtasida biroz bo'lsada aloqadorlik bor, ammo urbanizatsiyaning iqtisodiy geografik asoslari, umuman olganda, zaif. Vaholanki, shahar punktlariga berilgan ta'rifda "Shaharlar – qishloq xo'jaligi bo'lmagan sohalarda band bo'lgan aholi punktlari", deb keltirilgan. Binobarin, hozirgi zamon urbanizatsiya kengroq mazmun kasb etmoqda va u O'zbekistonda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, O'zbekiston Respublikasida urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishi klassik shahar hosil qiluvchi sanoat tarmoqlari bilan emas, xizmatlar sohasining rivojlanishi bilan uzviy aloqadorlikka ega ekanligi isbotlandi.

O'zbekiston Respublikasi urbanistik tizimi 2025-yil yanvar holatida 120 ta shahar va 1059 ta shaharchalardan iborat bo'lib, umuman olganda urbanistik to'rt yetarli darajada shakllangan, galdagi vazifa mukammal iqtisodiy asosga ega urbanistik tarkibni shakllantirishdir. Chunki, urbanizatsiyaning geografik ko'rsatkichi nafaqat shahar joylarning zichligi, balki shaharlarning katta-kichikligi yoki hududiy urbanistik tarkibi orqali ifodalanadi. Sababi, ma'lum bir hududdagi shahar aholisi bir qancha mayda shaharlar yoki son jihatidan uncha ko'p bo'lmagan yirik va o'rta shaharlarda mujassamlashgan bo'lishi mumkin. O'zbekiston katta (100 ming kishidan ortiq aholiga ega) shaharlari jami shahar aholi punktlarining atigi 1,9 foizini tashkil qilgan holda, ularda jami shahar aholisini 44,7 foizi yashaydi.

O'zbekiston Respublikasining o'rtacha urbanizatsiya darajasi jahon o'rtacha urbanizatsiya ko'rsatkichiga yaqin bo'lsada, uning ma'muriy birliklari doirasida farq juda katta. Shu, o'rinda mazkur tadqiqotda an'anaviy ravishda faol qo'llaniladigan viloyatlar o'rtacha urbanizatsiya darajasini aniqlash metodlari o'rganilgan holda, qishloq tumanlari, ya'ni, "mikro hududlar" darajasida urbanizatsiya ko'rsatkichlari tahlil qilindi (2-rasm). Urbanizatsiya jarayonlarini quyi bo'g'in - qishloq tumanlari doirasida o'rganish usuli eng avvalo urbanizatsiya darajasi o'zgarishining hududiy tafovutlarini yanada chuqurroq tadqiq qilish, birinchi navbatta qaysi tumanlarda urbanizatsiya jarayonlarini faollashtirish, har bir mikro hudud uchun urbanizatsiya darajasini oshirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni puxta tahlil qilish orqali aniq chora tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Mikro hududlar doirasida urbanizatsiya darajasi aniqlik va ishonchlilik darajasini oshirish maqsadida mavjud ma'lumotlar yirik urbanistik siyosat amalga oshirilgan 2010-yil hamda 2025-yil holatida tahlil qilindi.

Tadqiqotda respublika tumanlari urbanizatsiya darajasiga bog'liq holda, xo'jalik ixtisoslashuviga ko'ra 163 qishloq tumanlari to'rtta – agrar, agrar-industrial, industrial-agrar, industrail guruhlarga ajratildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, urbanizatsiya darajasi 68 ta tumanda 30 foizga (agrar ixtisoslashuv), 66 ta tumanda 50 foizga (agrar-industrial) ham yetmaydi.

Umuman olganda, atigi 29 ta tumanning urbanizatsiya darajasi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori ekanligi, kelajakda urbanizatsiyaning rivojlantirishda asosiy e'tibor agrar va agrar-industrial ixtisoslashuvga ega tumanlarga qaratilishi lozimligini ko'rsatmoqda (2-jadval).

**O‘zbekiston Respublikasi qishloq tumanlarining urbanizatsiya darajasi
va xo‘jalik iqtisoslashuviga ko‘ra guruhlanishi**

T/r	Hududlar	30 foizdan past agrar	30-50 foiz agrar industrial	50-75 foiz industrial agrar	75 foizdan yuqori industrial yoki xizmatlar sohasi
	O‘zbekiston Respublikasi	68	66	23	6
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	6	6	3	1
	viloyatlar:				
2	Andijon	1	10	1	2
3	Buxoro	8	2	1	-
4	Jizzax	3	7	2	-
5	Namangan	-	5	6	-
6	Navoiy	2	4	1	1
7	Qashqadaryo	6	5	2	1
8	Samarqand	12	2	-	-
9	Sirdaryo	4	3	1	-
10	Surxondaryo	6	8	-	-
11	Toshkent	8	6	1	-
12	Farg‘ona	4	5	5	1
13	Xorazm	8	3	-	-

Jadval O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Urbanizatsiya jarayonlarini tadqiq etishda yuqori iqtisodiy salohiyatga ega Amerika Qo‘shma Shtatlari, Rossiya Federatsiyasi, tabiiy sharoiti va milliy qadriyatlari o‘xshash bo‘lgan Turkmaniston Respublikasiining bu sohadagi tajribalari tahlil qilindi. Natijada, xorijiy mamlakatlarda yirik shaharlar va hududiy urbanistik tizimlar rivojlanishi, sanoat va monoxiqtisoslashuvga ega “resurs” shaharlar taraqqiyoti bo‘yicha muhim xulosalar olindi.

Dissertatsiyaning **“Janubiy O‘zbekistonda shaharlar rivojlanishining asosiy omillari va urbanizatsiya jarayonini modellashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqot obektida joylashgan shaharlar rivojlanishiga tabiiy, demografik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarning ta‘siri ko‘rib chiqildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida shahar aholisi va urbanizatsiya jarayonlarining 2009-2024-yillardagi o‘zgarish dinamikasini matematik modellashtirish usullari orqali tahlil qilindi.

Tabiiy sharoit va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish alohida hududlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan birga, ulardagi mehnat va xom ashyo resurslarining ishga solinishi mavjud shaharlarning kengayib borishi va yangi shaharlar tashkil topishida muhim o‘rin tutadi. Shaharsozlik nuqtai nazaridan, eng avvalo, relef va gidrografik to‘rning ahamiyati katta. Bu borada gidrogeologiya va iqlim singari tabiiy komponentlar ham hisobga olinishi lozim. Tabiiy sharoitni shaharsozlik nuqtai nazardan o‘rganishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish va umumlashtirilgan xulosalar berish shaharlarda murakkab infratuzilma va xo‘jalik tarmoqlarini joylashtirishda muhim o‘rin tutadi. Shaharlar rivojlanishining tabiiy geografik jihatlari bilan sobiq Ittifoq iqtisodiy geograflari V.V.Pokshishevskiy

(1952, 1963), Y.G.Saushkin (1953), V.V.Vladimirov, A.S.Kryukov (1963), A.M.Kolotiyevskiy (1962), mamlakatimiz olimlaridan N.V.Smirnov, T.Raimov, A.Soliyev, G.Pardayev, A.Soatov va boshqalar shug'ullanishgan. Dissertatsiyada yuqoridagi olimlarning ilmiy ishlaridan kelib chiqqan holda, Janubiy O'zbekiston hududini shaharsozlik nuqtai nazardan rayonlashtirishda mutlaq balandlik bo'yicha joylashuvi va tabiiy-xo'jalik rayonlarga asoslangan holda, quyidagi uchta mintaqaga ajratiladi (3-rasm):

1. Tekislik mintaqasi (400 metrgacha);
2. Tog' oldi va past tog'lar mintaqasi (400-1000 metr);
3. Tog' mintaqasi (1000 metrdan yuqori).


Bunda mintaqaning uzoq geologik tarixi va geologik jarayonlarning ta'sirida shakllangan hududning yer usti tuzilishi, mineral xom ashyo va yoqilg'i resurslarining tarqalishi, seysmik holati, iqlimi, yer usti va yer osti suvlari kabi tabiiy komponentlar muhim o'rin tutadi. Janubiy O'zbekiston hududining Earth Explorer USGS saytida joylashgan SRTM tasvirlari yuklab olinib, so'ngra ushbu tasvirlar Arcgis Desktop 10.8.2. GAT dasturining ArcMap ilovasida hisoblanganda, jami maydonning 70,25 foizini tog' va tog' oldi hamda 29,75 foizini tekislik mintaqasi tashkil qildi, ya'ni respublika umumiy ko'rsatkichlariga mutlaqo zid holatni ko'rsatdi (respublika maydoning 21,3 foizini tog' va tog'oldi; 78,7 foizini tekislik mintaqasi tashkil etadi) Biroq, viloyatlar doirasida tog'li hududlar salmog'i turlicha bo'lib, Surxondaryo viloyatining 82,6 foiz maydoni tog' va tog' oldi mintaqasida joylashgan bo'lsa, Qashqadaryo viloyatining 61,5 foiz hududi mazkur mintaqaga mansub.

Tog' mintaqasida 2024-yil holatida 8 ta shahar aholi punkti mavjud bo'lib, ularda shahar aholisining 2,4 foizi istiqomat qiladi. Shundan, Boysun shahri tipik tog' hududidagi shahar bo'lib, u asosan rekreatsiya-sog'lomlashtirish va tuman markazi sifatida rivojlanib kelmoqda. Shuningdek Surxondaryo viloyatining Pasurxi, Qorabo'yin, Zarabog', Qashqadaryo viloyatining Miroqi, Ammog'on, Obikanda, Samoq shaharchalari ham tog' mintaqasida joylashgan.

Janubiy O'zbekiston markaziy qismini band etgan Hisor tog'larining shimoli-g'arbiy va janubi-sharqiy qismlarini o'z ichiga olgan tog' oldi mintaqasi o'zining qulay tabiiy sharoiti va yer-suv resurslariga ega ekanligi sababli Shahrisabz, Kitob, Denov, G'uzor kabi qadimiy shaharlar aynan shu mintaqada shakllangan. Hozirgi vaqtda ushbu hudud jami shahar aholi punktlarining 54,4 foizi (136 ta), shahar aholisining esa 46,4 foizini (1188,0 ming kishi) o'zida jamlagan. Ushbu mintaqada shaharlari asosan an'anaviy yengil va oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan (Sharg'un bundan mustasno). Tog' oldi mintaqasi tabiiy komponentlar bilan yaxshi ta'minlanganligi tufayli u shaharsozlik jihatdan eng katta ustunliklarga ega. Shu sababdan, mazkur hududda kelajakda ham yangi shaharlarning vujudga kelishi uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Tadqiqot ishida Janubiy O'zbekiston tekislik mintaqasini tabiiy xo'jalik nuqtai nazardan farq qiluvchi Sandiqli cho'li, Quyi Qashqadaryo va Surxon-Sherobod kichik mintaqalariga ajratilgan. O'z navbatida, Quyi Qashqadaryo va Surxon-Sherobod tekislik kichik mintaqalari qadimdan sug'oriladigan daryo vodiylari hamda qishloq xo'jaligida yangi o'zlashtirilgan yerlarni (Qarshi va Surxon-Sherobod cho'llari) o'z ichiga oladi.

Tekislik mintaqasining qadimdan foydalaniladigan qismi mintaqaning daryo vodiylariga to‘g‘ri kelganligi sababli suv taqchilligi sezilmagani holda, uning yangi o‘zlashtirilgan hududlarida doimiy o‘qar suvlarning deyarli yo‘qligi aholi va qishloq xo‘jaligining suvga bo‘lgan talabini asosan kanallar va suv omborlari hisobiga qondirilishiga olib kelgan. Ammo hozirgi vaqtda Qarshi cho‘li (Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon, Kasbi) tumanlarida suv, ayniqsa toza ichimlik suvi muammosi keskinlashib bormoqda. Iqtisodiy rayon shahar aholi punktlarining 42,4 foizi (106 ta) va ulardagi aholining 51,2 foizi (1314,6 ming kishi) tekislik mintaqasiga to‘g‘ri kelgan. Viloyatlarning ma‘muriy va ko‘p funksiyali markazlari Qarshi va Termiz aynan shu mintaqada joylashgan. Shuningdek, bu yerda yangi maydonlarni o‘zlashtirish asosida vujudga kelgan Koson, Beshkent, Yangi-Nishon, Jarqo‘rg‘on, gidrotexnik inshootlar qurilishi munosabati bilan Talimarjon hamda Muborak – “resurs” shaharlari tashkil topgan. Dissertatsiyada mintaqa shaharlarining shakllanishi va rivojlanishi havza prinsipi asosida tahlil qilingan. Bu xususda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari aynan gidrologik omil, ya‘ni daryolar ta‘sirida tarixan shakllanib, rivojlanib kelganligi ta‘kidlanadi.

O‘tgan yillar mobaynida, butun respublikada bo‘lgani singari, Janubiy O‘zbekistonda ham demografik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari mintaqa urbanizatsiya ko‘rsatkichlariga bevosita ta‘sir qilib keldi. Tahlillar ko‘rsatishicha, Janubiy iqtisodiy rayon urbanizatsiya darajasining mamlakat o‘rtacha ko‘rsatkichidan doimiy pastligi, tug‘ilish ko‘rsatkichining yuqoriligi, qishloq va shahar o‘rtasida tabiiy ko‘payish jarayonlaridagi farqning kamligi va migratsiya jarayonlarining sust ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Shu o‘rinda ta‘kidlash lozimki, mintaqada urbanizatsiyaning demografik jarayonlarga ta‘siri deyarli yo‘q, aksincha, urbanizatsiyalashuv yuqori demografik ko‘rsatkichlar, ya‘ni aholining tabiiy harakati va yangi shaharchalar natijasida sodir bo‘lmoqda.



4-rasm. Janubiy O‘zbekiston viloyatlari sanoat tarkibi (2024-yil yakunlariga ko‘ra).

Rasm O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Urbanizatsiya jarayonlarining kechishiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega Janubiy O'zbekiston viloyatlari respublikada sanoat mahsulotlarining hajmi, tarkibi, ixtisoslashuv va mujassamlashuv jihatlari bo'yicha ham boshqa hududlardan alohida ajralib turadi. 2024 yil yakunlariga ko'ra, mintaqa respublika sanoat mahsulotining atigi 6,2 foizini yetkazib bermoqda (2010 yilda 16,2 foiz bo'lgan). Uning asosiy qismi tabiiy gaz, gaz kondensati, neft, oltingugurt, polietelin, qurilish sanoati xom ashyolaridan iborat. Yoqilg'i mahsulotlari ishlab chiqarish mintaqaning respublikadagi mehnat taqsimotidagi o'rnini belgilab beradi.

O'z navbatida sanoat mahsulotlari hajmi va tarkibiga ko'ra Janubiy O'zbekiston viloyatlari orasida ham turli xil tafovutlar mavjud. Jumladan, 2024-yil yakunlariga Qashqadaryo viloyatida 39488,1 mlrd. so'mlik, Surxondaryo viloyatida esa 14888,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Bundan ko'rinadiki, iqtisodiy rayon doirasida mazkur tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarish asosan Qashqadaryo viloyati hisobidan shakllanadi. Shuningdek, mintaqa viloyatlari sanoat mahsulotlari tarkibiga ko'ra ham bir-biridan ancha farq qiladi (4-rasm).

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra 2024-yil yakunlari bo'yicha respublikaga kiritilayotgan umumiy investitsiyalarning 9,8 foizi (48,3 trln. so'm) Janubiy O'zbekiston viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. So'nggi yillarda iqtisodiy rayon bo'yicha kiritilayotgan investitsiyalar fizik hajmi ortib borayotgan bo'lsada, respublika umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi oldingi yillarga nisbatan, huddi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushida bo'lgani kabi muttasil ravishda kamayib bormoqda (2017-yilda 21,2 foizdan 2024-yilda 9,8 foizga). Shu bilan birga, kiritilayotgan investitsiyalar hajmi bo'yicha Janubiy O'zbekiston viloyatlari o'rtasidagi tafovut borgan sari kamayib bormoqda. Jumladan, 2010-yilda Janubiy O'zbekistonga kiritilgan jami investitsiyalarning 71,5 foizi Qashqadaryo va 28,5 foizi Surxondaryo viloyatiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024-yilda mos ravishda 68,3 foiz va 37,7 foizga teng bo'lgan. Kapital qo'yilmalarning hududiy tarkibini tahlil qilish, yaqin kelajakda mintaqaning qaysi tuman va shaharlari jadal rivojlanishi, ya'ni o'sish qutblari va markazlari vazifasini bajarishini ko'rsatib berishi bilan katta ahamiyatga ega.

Shaharlar va urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishining sotsial omillari tahlil qilinganda avvalambor ularga xizmat qiluvchi va shahar yaratuvchi (tashkil etuvchi) jihatlarni aniqlab olish talab etiladi. Binobarin, ushbu ishda umuman sotsial sohalar emas, aholiga xizmat ko'rsatuvchi, ularning shahar hosil qiluvchi xususiyatlari inobatga olinadi. Janubiy O'zbekistonda ijtimoiy sohalarning hududiy tashkil etilishi urbanizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning yuqori bo'g'ini va asosiy markazlari aynan shahar joylarda tarkib topgan. Bu xususda I pog'onada viloyat markazlari – Qarshi va Termiz, II pog'onada Shahrisabz, Denov, III pog'onada qishloq tumanlari markazlari, IV bosqichda qishloq fuqorolar yig'ini (QFY) markazi va so'nggi V pog'onada qishloq aholi punktlari turadi.

Ishda O'zbekiston Respublikasi va Janubiy O'zbekiston viloyatlari bo'yicha 2010 – 2025-yillardagi statistik ma'lumotlarga asoslanib, shahar aholisi o'sishi va urbanizatsiya darajasini belgilovchi ko'rsatkichlar uchun 7 xil turdagi modellashtirish ishlari amalag oshirildi, olingan natijalar asosida turli ko'rinishdagi

prognoz modellari ishlab chiqildi va ushbu tenglamalardan prognoz uchun maqbul bo'lgan modellarni tanlab olish usullari tavsiya qilindi. ma'lumot sifatida O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo va Surxondaryo bo'yicha shahar aholisi soni va urbanizatsiya ko'rsatkichi dinamikasidan foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasi shahar aholisi soni (S_1), O'zbekiston Respublikasi urbanizatsiya darajasi (Y_1), Qashqadaryo viloyati shahar aholisi soni (S_2), Qashqadaryo viloyati urbanizatsiya darajasi (Y_2), Surxondaryo viloyati shahar aholisi soni (S_3), Surxondaryo viloyati urbanizatsiya darajasi (Y_3) ko'rsatkichlari uchun prognoz modellari ko'rib chiqildi. Har bir model uchun R^2 va F-Fisher mezonni qiymatlari aniqlanib, maxF mezoniga ko'ra maqbul modullar ajratib olindi. O'zbekiston Respublikasi shahar aholisi sonining (S_1) o'zgarish dinamikasini tahlil qilishda kubik (kubik) va to'rtinchi darajali (4-darajali) modellar eng yuqori aniqlikka ($R^2 \approx 0.9979$) ega ekanligi kuzatildi. Kvadratik model ham yuqori aniqlikda va sodda tenglamaga ega. Logarifmik model esa nisbatan kamroq mos keladi ($R^2 \approx 0.96$).

O'zbekiston Respublikasi urbanizatsiya darajasini (Y_1) dinamik o'zgarishini ifodalashda ham eng yuqori aniqlik ($R^2 \approx 0.95$) – kubik va 4-darajali modellarda berilgan bo'lsa, aksincha, logarifmik va chiziqli modellar past aniqlikka ega ($R^2 \approx 0.21$). F-mezon ham yuqoridagi baholarga mos ravishda o'zgaruvchan bo'ladi.

Hisoblangan regressiya tenglamalaridan eng adekvati tanlanib, O'zbekiston Respublikasi urbanizatsiya darajasini 2025-2030-yillar bo'yicha prognoz qiymatlari hisoblandi. Bunda eng yuqori aniqlikdagi uchinchi darajali (kubik) model ma'lumotlaridan foydalanilgan holda qisqa muddatga prognoz qilindi. Prognoz natijalariga ko'ra eng optimal variantda 2030-yilda mamlakat urbanizatsiya darajasi 52,7 foiz atrofida bo'lishini ko'rsatmoqda.


Xuddi shunday tartibda, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari shahar aholisi va urbanizatsiya darajasini 2009-2024-yillar oralig'idagi dinamik o'zgarishini ifodalovchi modellar ham ishlab chiqildi. Mazkur modellarni qurishda ularning soddaligi, R^2 va F-mezon qiymatlaring aniqligi ham hisobga olindi.

Dissertatsiyaning **“Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya jarayoni rivojlanishining asosiy istiqbol yo'nalishlari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishining asosiy muammolari tadqiq qilindi, mintaqa shahar aholi punktlari hududiy tarkibi, urbanizatsiya darajasining o'zgarishi prognoz qilindi hamda hududiy urbanistik tarkibi rivojlanishi va takomillashuvining asosiy yo'nalishlari bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi.

Urbanizatsiyaning moddiy negizini tashkil etuvchi shaharlarda hududlarning sanoat, madaniyat, infratuzilma, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari, investitsiya va innovatsiya kabi serdaramod sohalari yuqori darajada mujassamlashgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mintaqalarning mavjud muammolari shaharlar muammosida o'z aksini topadi. Bu muammolar turli sohalarda, sanoat, transport, aholiga xizmat ko'rsatish va servis sohalari, shuningdek, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, ma'muriy hududiy tuzilmani takomillashtirish va boshqalar hisoblanadi. Dissertatsiyada olib borilgan tadqiqotlar asosida, O'zbekiston, shu jumladan Janubiy

O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan mazkur muammolarni tizimlashtirgan holda, shartli ravishda urbanizatsiyaning meyoriy-huquqiy va ma‘muriy-boshqaruv, demografik hamda urbanistik tarkibi rivojlanishining iqtisodiy geografik muammolari ajratish mumkin:

Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari urbanizatsiya darajasi o‘rtasidagi hududiy tafovutlar tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar natijasi bo‘lib, u bundan keyin ham davom etadi. Shu bois, Janubiy O‘zbekiston aholisining hududiy joylashuvi, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini hisobga olgan holda, mazkur ishda mintaqa urbanistik tarkibi, shahar aholisi va urbanizatsiya darajasi uch xil yaqin (2030-yil), o‘rta (2040-yil) va uzoq (2050-yil) muddatga ekstrapolyatsiya usulida prognoz qilindi. Prognoz natijalari mintaqa shahar joylari to‘rida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmasligi va, ayni vaqtda, urbanistik tarkibning yiriklashib borishini ko‘rsatadi (5-rasm).



5-rasm. Janubiy O‘zbekiston urbanistik tarkibining 2050-yilgacha prognozi

Izoh: Rasm statistik ma‘lumotlarga asoslangan holda muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Mintaqada urbanizatsiya darajasini 2050-yilgacha bo‘lgan davrga prognoz qilishda 2010-2025-yillardagi urbanizatsiya darajasining o‘rtacha o‘sish ko‘rsatkichlari asos qilib olindi. Prognoz natijalari real voqelikdan kelib chiqqan holda juda pessimistik xulosalar bermoqda. Xususan, hozirgi geodemografik jarayonlar saqlanib qolinsa, 2050-yilda mintaqa urbanizatsiya darajasi 38,5 foizga tushib qolishi mumkin. Bu esa, davlat dasturlarida belgilangan 2026-yilgacha Qashqadaryo viloyati urbanizatsiya darajasini 50 foizga, 2030-yilgacha respublika urbanizatsiya darajasini 60 foizga yetkazish maqsadlari ijrosini ta‘minlashga to‘siq bo‘ladi. Shu sababli, hozirdan aholi soni va shaharozlik talablariga javob beradigan qishloq aholi punktlarini shaharchalar toifasiga o‘tkazish, yirik va o‘rta shaharlar hududlarini kengaytirish, shahar va shaharchalarda aholi yashashi uchun infratuzilma tarmoqlari va uy-joy fondini ko‘paytirish, xizmat ko‘rsatish va sanoat

sohasida yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali ijobiy migratsiyani rag‘batlantirish siyosatini olib borishi lozim bo‘ladi.

Janubiy O‘zbekiston urbanistik tarkibining prognozi istiqbolda mintaqa shaharlarining funksional tiplariga alohida e‘tibor qaratish lozimligini taqozo etadi. Jumladan, yangi tashkil etilgan shaharchalarning 45 foizi hozirgi vaqtda ham faqat QFY markazi vazifasini bajarishadi. Ular QFYga tegishli qishloqlar aholisiga tibbiyot, savdo, boshqa maishiy va servis xizmatlarini ko‘rsatib boradi. Ammo ularda haqiqiy shaharlarga xos sanoat korxonolari va sanoat mahsulotlari tayyorlash deyarli shakllanmagan. Shu sababdan, kelajakda ushbu shaharchalarda o‘zlari joylashgan hudud xo‘jaligining ixtisoslashuvi, ijtimoiy va transport infratuzilmasi bilan ta‘minlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda rivojlantiriladi.

“Resurs shaharlar” – Muborak, Sharg‘un, Jarqo‘rg‘on, Talimarjon, Qumqo‘rg‘on, Kokaydi, Elbayon, Mash‘al va boshqalar mintaqa iqtisodiyotida muhim rol o‘ynaydi. Ammo, ushbu shahar joylarning aksariyati mamlakat mustaqilligidan keyingi o‘tish davri sharoitida ancha qiyin ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni boshdan kechirdi. Shu sababdan ularda mavjud sanoat tarmoqlari bilan bir vaqtda, yangi sanoat va aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari parallel rivojlanishini taqozo etmoqda.

Agroindustrial shaharlar – mintaqada mavjud tuman markazlari vazifasini bajaruvchi shaharlar bo‘lib, ularda asosan qishloq xo‘jalik xom ashyosidan oqilona foydalangan holda yangi korxonalar tashkil etish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish hamda aholiga xizmat ko‘rsatish sohasining asosiy va birlamchi tarmoqlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Tumanlararo yoki okrug markazlari – hududlar urbanizatsiyasining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadigan qulay geografik o‘ringa ega Qarshi, Shahrisabz, Termiz va Denov shaharlaridan iborat. Kelajakda ushbu markazlarda qulay investitsiya muhiti va infratuzilma tarmoqlari, yetarli mehnat va iste‘mol bozoriga ega ekanligi bois, ko‘plab zamonaviy sanoat korxonolari tashkil etiladi. Shu bilan birga, mintaqaning asosiy arxeologik, tarixiy va diniy obidalari ham aynan mazkur shaharlarda joylashganligi tufayli, ularda turizm sohasining rivojlanishi uchun ham katta imkoniyatlar mavjud. Umuman olganda, Qarshi, Termiz, Shahrisabz va Denov shaharlari Janubiy O‘zbekistonning “to‘rtta” tayanch ustuni sifatida rivojlanib boradi va aynan ular istiqbolda mintaqaning haqiqiy hududiy urbanistik tarkibi va tizimini belgilab beradi.

XULOSA

Hozirgi zamon urbanizatsiyasi globallashuv kabi o‘ta murakkab va jadal rivojlanayotgan jarayondir. Ushbu ishda olib borilgan tahlillar, tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. O‘zbekiston Respublikasi hududlarining urbanistik salohiyat indeksi - ko‘p mezonli tahlillarga asoslangan holda, aholi va shaharlar joylar zichligi katta bo‘lgan viloyatlarda yuqori, aksincha yer maydonlari yirik va aholi siyrak joylashgan hududlarda past bo‘lishi isbotlandi. Hududlarning urbanistik salohiyatini aniqlovchi bunday yondashuv nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy rejalashtirishda, ayniqsa

O‘zbekiston singari urbanizatsiya jarayonlari o‘ziga xos kechayotgan davlatlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi hamda urbanizatsiya jarayonini iqtisodiy geografik o‘rganish metodlarini takomillashtirish imkonini beradi.

2. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida urbanizatsiya jarayoni va uning asosini tashkil etuvchi shaharlar miqdor nuqtai nazardan deyarli o‘shishdan to‘xtagan, shaharlar ixtisoslashuvi sanoatdan xizmatlar sohasiga o‘zgarib borayotganligi maxsus matematik ishlanmalar bilan isbotlab berildi. Hududlarning urbanizatsiya darajasi va qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan sohalarda band aholi o‘rtasidagi aloqadorlik juda zaif va bu holat yildan yilga ortib borayotganligi asoslandi.

3. O‘zbekiston Respublikasida urbanizatsiya darajasi mikro hududlar – qishloq tumanlari kesimida tadqiq qilinganda, mavjud 163 qishloq tumanlaridan 68 tasida bu ko‘rsatkich 30 foizga (agrar ixtisoslashuv) ham yetmasligi aniqlandi. Umuman olganda, 82 foiz (134 ta) tumanning urbanizatsiya darajasi respublika o‘rtacha ko‘rsatkichi 51,0 foizdan past ekanligi, hududlarni iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda aynan mazkur tumanlarda urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirishga asosiy e‘tibor qaratilishi lozim ekanligi asoslab berildi.

4. Hozirgi vaqtda Janubiy O‘zbekistonda shaharlar to‘ri nisbatan yaxshi shakllangan, ammo shahar aholi punktlarining funksional tarkibi va shaharlar iyerarxiyasini maqsadli takomillashtirib borish lozim. Xususan, Qarshi va Termiz shaharlarini yirik mintaqaviy markaz sifatida rivojlantirish, atrofdagi kichik shaharlarni ularga integratsiya qilish; umumviloyat darajasida yirik shaharlarni (Shahrisabz, Denov, va Koson) polifunksional ixtisoslashtirish; tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar (Jarqo‘rg‘on, Sho‘rchi, Sherobod, Kitob, G‘uzor va boshqalar) va kichik shaharlar rolini kuchaytirish (masalan, sanoat, agrar yoki logistika markazlari sifatida), bunda, shaharlarning istiqbolda rivojlanishini amalga oshirishda ular joylashgan hududning tabiiy geografik xususiyatlari ham inobatga olinishi zarurligi asoslab berildi.

5. Mintaqa shahar aholi punktlari funksional tiplari tahlili mintaqadagi shaharlarning nisbatan ko‘p funksiyali ixtisoslashuvga ega ekanligini, biroq shaharchalarning funksional tiplari hamon yaxshi shakllanmaganligini ko‘rsatdi. Jumladan, hozirda Qashqadaryo viloyatida 48 ta, Surxondaryo viloyatida 55 ta shaharchalarning asosiy vazifasi M.F.Y markazi funksiyasidan iborat ekanligi aniqlandi. Xonobod, Jeynov, Miraki, Ayritom, Chiyal, Xo‘jasoat, Kokaydi, Elbayon, Qurama, Hurriyat, Zarabog‘ kabi aksariyat shaharchalar ham mono ixtisoslashuvga ega bo‘lib, bu holat ularning iqtisodiy taraqqiyotini cheklab qo‘yishi mumkinligi asoslandi.

6. Janubiy O‘zbekiston urbanistik tarkibida o‘rta bo‘g‘in shaharlari hozirgi vaqtda ancha sust rivojlangan. Ekstrapolyatsiyaga asoslangan prognoz natijalari 2050 yilda ushbu toifa shaharlar sonining 8 ta bo‘lishini ko‘rsatmoqda. Shu boisdan, hozirdanoq “yarim o‘rta” shaharlar hisobidan Muborak, G‘uzor, Qumqo‘rg‘on, Sherobod, Sho‘rchi, Chiroqchi, Boysun, Maymanoq singari shahar joylarini viloyatlar darajasidagi o‘shish qutb va markazlari sifatida jadal rivojlanishini ta’minlash maqsadga muvofiq. Bunda ushbu shaharlarning tabiiy sharoit va resurslar

bilan ta'minlanganligi va qulay transport geografik o'ringa ega ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Janubiy O'zbekiston shahar aholi soni va urbanizatsiya darajasini matematik modellashtirish va prognozlashtirish natijalari salbiy xulosalar bermoqda. Agar hozirdanoq tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmasa, urbanizatsiya darajasini oshirish bo'yicha davlat dasturlarida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga o'z vaqtida erishish imkonini bo'lmaydi. Shu sababli, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining 200 dan ortiq, jumladan Qashqadaryo viloyatida Qamashi, Chandir, Dasht, Xo'jaxayron, Oqto'nli, Choydori, Qoratepa, Chuvulloq, Surxondaryo viloyatida Sina, Baxshitepa, o'zbekiston be yilligi, Qiziltepa, To'pqora, Oqqo'rg'on, Xalqabod kabi yuqori salohiyatli qishloqlarini bosqichma-bosqich shaharchalar toifasiga o'tkazish hamda yirik shaharlarga qo'shib yuborish orqali urbanizatsiya darajasini oshirish taklif etildi.

8. Janubiy O'zbekistonda Buxoro-Termiz avtomobil va temir yo'li negizida "hududiy urbanistik koridor" shakllanishi hamda ushbu "koridor"da Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Boysun, Dehqonobod, G'uzor, Koson, Muborak shaharlari "o'sish qutblari" vazifasini bajarishi mumkinligi asoslandi. Transport va logistika infratuzilmasini yaxshilash orqali yirik shaharlar va tuman markazlarini o'zaro bog'lovchi avtomobil yo'llari va temiryo'l tarmoqlarini rivojlantirish, jumladan, Ayritom-Chiroqchi-Yakkabog' va Qumqo'rg'on-Sariq-Sherobod temir yo'llarini qurish, Afg'oniston, Turkmaniston va Tojikiston davlatlari bilan chegaradosh hududlarda chegara savdosi va logistika xablarini yaratish (ayniqsa Termiz, Tolimarjon, Denov shaharlari atrofida) taklif qilinadi.

9. Ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan, jumladan, Amudaryo, Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa suv manbalaridan oqilona foydalanish; arid zonada joylashgan Qarshi, Muborak, Termiz, Koson, Yangi-Nishon, Tolimarjon va boshqa shahar joylar uchun qurg'oqchilik va cho'llanishga qarshi hududiy moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish; qayta tiklanadigan energiya manbalariga asoslangan "yashil shahar" va "aqlli shahar" loyihalarini joriy qilib borish taklif etiladi.

10. Respublikada urbanizatsiya jarayonlari tartibga solish va boshqarish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda ayrim nomutanosibliklar va bahstalab bandlar mavjud. Mazkur muammolarni bartaraf etish, qabul qilinayotgan xujjatlarni puxta huquqiy ekspertizadan o'tkazish, bunda mazkur sohada yetakchi ilmiy tadqiqot va oliy ta'lim muassalari olimlarni jalb qilish maqsadga muvofiq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03./30.12.2019.Gr.01.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА**

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

КУРБОНОВ ПАХЛАВОН РУСТАМОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ СТРУКТУРЫ
ПРОЦЕССОВ УРБАНИЗАЦИИ В ЮЖНОМ УЗБЕКИСТАНА**

11.00.02 – Экономическая и социальная география

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА
ГЕОГРАФИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Ташкент – 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под № B2023.3.DSc/Gr53.

Диссертация выполнена в Каршинском Государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.nuu.uz), а также информационно-образовательного портала «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант:

Тожиева Зулхумор Назаровна
доктор географических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Жумаханов Шавкатжан Заиржанович
доктор географических наук, доцент

Турдимамбетов Изимбет Рахметович
доктор географических наук, профессор

Умурзаков Баходир Хамидович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация:

Термезский государственный университет

Защита диссертации состоится 26 ноября 2025 г. в 14:00 часов на заседании Научного совета по присуждению учёных степеней DSc.03./30.12.2019.GR.01.06 при Национальном Университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, 4. Тел.: (99871) 227-12-14; факс: (99871) 246-53-21; 246-02-24; E-mail: ik-geografiya.nuuz@mail.ru. Национальный университет Узбекистана, факультет географии и геоинформационных систем).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (регистрационный № 191). Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, 4. Тел.: (99871) 246-67-71.

Автореферат диссертации разослан 15 ноября 2025 года.
(реестр протокола рассылки №70 от 14 ноября 2025 года)

Ш.М.Шарипов
Председатель Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.г.н., профессор

К.А.Хакимов
секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
PhD, д.ф.г.н., доцент

М.Т.Миракмалов
Заместитель председателя Научного семинара
при Ученом совете по присуждению ученых степеней,
д.г.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В последние годы, в мире наблюдается стремительный рост численности населения и уровня урбанизации, под воздействием индустриализации и научно-технического прогресса. При этом игнорирование физико-географических и социально-экономических особенностей территорий, в этом процессе, привело к возникновению множества социально-экологических проблем в населённых пунктах. Устранение данных проблем отражено и в задачах международных организаций, в том числе в Повестке дня ООН в области устойчивого развития до 2030 года, где предусмотрена цель «Обеспечение открытости, безопасности, устойчивости и экологической устойчивости городов и населённых пунктов».¹ Решение этих задач, в свою очередь, требует научных исследований по рациональной территориальной организации производительных сил и согласованию развития крупных и малых городов и сельских поселений в рамках единой системы.

В мире, наука придаёт приоритетное значение исследованиям, направленным урбанизационных процессов, а также на выявление природных, экономических, социальных и экологических факторов, ограничивающих устойчивое развитие городов. В этом отношении важное значение имеют исследования, направленные на определение урбанистического потенциала территорий, развитие крупных урбанистических систем, городов и городских агломераций, модернизацию и диверсификацию функциональной структуры городов, а также на согласование процессов формирования агроиндустриальных посёлков и сельской урбанизации с социально-экономическим развитием территорий.

В ходе реализации политики урбанизации, в нашей республике реализуется ряд реформ, направленных на реализацию новой концепции «умных» городов, улучшения городской экосистемы, создания условий для развития городов-спутников и достигнуты положительные результаты. В Стратегии «Узбекистан-2030», обозначены важные задачи по «принятию мер по повышению уровня урбанизации с 51% до 60 %, превращению городов Самарканд и Наманган в «города-миллионники», увеличению количества городов и районов с численностью населения свыше 300 тысяч человек до 28, разработке генеральных планов всех населённых пунктов».² В этой связи, практическое значение имеют, научные исследования, направленные на выявление географических факторов, решение существующих проблем, влияющих на развитие процессов урбанизации в регионах Южного Узбекистана, обладающих уникальным социально-экономическим и демографическим потенциалом.

Настоящее диссертационное исследование, в определенной мере послужит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики

¹ <https://www.un.org/sustainabledevelopment/cities/>

² Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О стратегии Узбекистан — 2030».

Узбекистан УП №-158 «О стратегии Узбекистан – 2030» от 11 сентября 2023 года, УП №-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» от 28 января 2022 года, ПП №-5623 «О мерах по коренному совершенствованию процессов урбанизации» от 10 января 2019 года, а также постановлений Кабинета Министров Республики Узбекистан № 201 «О дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию территорий Кашкадарьинской области и дальнейшему повышению уровня жизни населения в 2022–2026 годах» от 20 апреля 2022 года, № 245 «О дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию территорий Сурхандарьинской области и дальнейшему повышению уровня жизни населения в 2022–2026 годах» от 10 мая 2022 года и других нормативно-правовых актов, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики. 1. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, развитие инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации³. Научные исследования, посвящённые формированию городов и развитию процессов урбанизации, а также их политико-административным, правовым, социальным, экономическим и социально-экологическим аспектам, активно проводятся ведущими международными организациями, научно-исследовательскими центрами и высшими учебными заведениями, включая: UN-Habitat (ООН), OECD (ЕС), Всемирный банк, Lincoln Institute of Land Policy (США), ICLEI (Международный совет по инициативам в области местной экологической устойчивости), C40 Cities Climate Leadership Group (глобальная сеть ведущих городов в борьбе с изменением климата), исследования проводятся в США (Массачусетский технологический институт (MIT), Университет Калифорнии, Беркли), Англии (Оксфордский университет, Лондонская школа экономики (LSE)), Японии (Токийский университет), Нидерландах (Утрехтский университет), Швейцарии (ETH Цюрих – Институт урбанистики и ландшафтных исследований), Китае (Китайская академия наук, Пекинский университет – Школа урбанистики и экологических наук), Российской Федерации (МГУ), Франции (Институт планирования и урбанизма), Узбекистане (Национальный университет Узбекистана, Ташкентский государственный экономический университет) и в других странах.

Результаты научных исследований по обеспечению устойчивого развития городов и совершенствованию урбанизационных процессов, включают в себя целый ряд практических достижений. В частности: разработаны теории урбанистической политики регионов, общественного транспорта и

³ Обзор зарубежных исследований по теме диссертации: <https://unhabitat.org.>, <https://www.worldbank.org.>, <https://www.oecd.org.>, <https://www.espon.eu.>, <http://www.landscape-ecology.org.>, <http://www.dslib.net.>, <http://www.elsevier.com.>, <https://www.researchgate.net.>, <http://www.dissercat.com.>, <https://link.springer.com.>, <http://www.scholar.google.com.> составлено на основе таких сайтов.

социальной справедливости в городах, а также устойчивости городов в условиях изменения климата (Massachusetts Institute of Technology (MIT), США; разработаны методики моделирования городов будущего, изучено влияние агломераций на экономику и развитие территориальных урбанистических систем (London School of Economics (LSE), Англия); разработана концепция «умного города», а также, проведены исследования в сферах городской архитектуры, инфраструктуры и землепользования (University of Tokyo, Япония); разработаны программы по прогнозированию урбанизационных процессов и трансформации городов (Utrecht University, Niderlandiya); созданы методы оценки городской экологии, управления земельными ресурсами, изучения миграции и экономической активности (ETH Zurich – Institute of Urban and Landscape Studies, Shveysariya); разработаны теоретические подходы к анализу влияния урбанизации на демографические процессы, ландшафт городов и проблему нехватки ресурсов (Chinese Academy of Sciences, Китай).

В мировой практике, ведутся научные и практические исследования по научной организации процессов урбанизации, в том числе по следующим приоритетным направлениям: совершенствование методологий выявления и оценки городского потенциала регионов, изучение факторов, влияющих на развитие процессов урбанизации, с использованием современных методов, анализ влияния изменения климата на развитие городов, выявление взаимосвязи городских систем с экономическим развитием, управлением земельными ресурсами и развитием инфраструктуры, оценка влияния демографических проблем на динамику численности городского населения, изучение закономерностей социальной среды городов и распространения городского образа жизни, достижение экономического процветания за счет повышения конкурентоспособности регионов в результате развития городов и другие.

